

O'ZBEKISTONDA SAVDO SOHASI TARMOQLARINI SOLIQQA TORTISHDA FARMATSEVTIKA SOHASINING O'RNI VA AHAMIYATI

Voxidov Bobir Abdug'affor o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi tinglovchisi

e-mail:bobirvoxidov10@gmail.com

tel: 90 827-65-15

Anotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizdagi savdo sohasini soliqqa tortishda farmatsevtika sohasining o'rni va ahamiyati o'rganilgan. Mazkur soha so'nggi yillarda savdo sohasidagi soliq tushumlari tushishi bo'yicha yetakchi o'rinlarda bormoqda. Davlatning ushbu sohaga qaratayotgan e'tibori natijasida mazkur sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari ko'payib, soliq tushumlari yildan yilga ko'paymoqda sohada yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Ushbu maqolda Davlat Soliq Qo'mitasi, Farmatsevtika agentligi ma'lumotlaridan foydalanib, statistic ma'lumotlar tadqiq etildi.

Tayanch so'z va iboralar: farmatsevtika sohasi, qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, yagona soliq to'lovi

Kirish.

"Mamlakatimizda olib borilayotgan jadal va keng ko'lamli islohotlar yurtimizda yangi davrni – yangi O'zbekiston davrini boshlab berdi.

Bugun yurtimizda tarixan qisqa fursatda butunlay yangicha siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ma'rifiy va madaniy muhit paydo bo'ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. (Sh. Mirziyoyev nutqi, 2021)

O'zbekistonning o'rta va uzoq muddatlarga mo'ljallangan makroiqtisodiy siyosati barqaror iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan bo'lib, asosiy maqsadlardan biri 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobarga oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun aholi jon boshiga YIM hajmini 4 ming AQSH dollaridan oshirish hisoblanadi. ("Budjetnoma 2025-27", 2024)

Bunday dinamik o'sish sharoitida har bir sohada o'ziga o'zgarishlar bo'lishi tabiiy hol. Jumladan ijtimoiy soha hisoblangan farmatsevtika sohasi ham so'nggi yillarda jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Hozirgi kunga kelib sohada sezilarli o'zgarishlar bo'ldi.

O'zbekiston farmatsevtika bozori bugungi kunda mintaqada eng tez o'sish dinamikasiga ega va bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishda rivojlanmoqda. Avvalo, ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni ortib borayotganini ko'rmoqdamiz. Hozir sanoatda 200 dan ortiq korxona faoliyat ko'rsatib, ulardan 85

tasi dori vositalari, 120 dan ortig'i tibbiyot buyumlari va asbob-uskunalar ishlab chiqaradi. (Sh.Mirziyoyev nutqi,2021)

Dunyoning 27 davlatiga mahsulot yetkazib berayotgan O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika tarmog'ining eksport hajmi olti yil avvalgiga nisbatan 5 barobar o'sganini ko'rsatdi.

Rejaga ko'ra, 2026 yilgacha respublikada oltita yangi korxona ochilishi kerak. Ushbu loyihalarning umumiy qiymati 280 million dollarni tashkil etadi va bugungi kunda davlat tomonidan ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tomonidan ushbu muammoni hal qilish uchun barcha zarur choralar ko'rilmogda. (Sh.Mirziyoyev nutqi,2022)

Adabiyotlar sharhi.

Farmatsevtika sohasiga iqtisodiy jihatdan qaraydigan bo'lsak,mamlakat iqtisodiyotiga tushadigan tushumlarni ko'payishi va aholini daromadi oshishiga ta'sir qiluvchi sohalardan biri sifatida ko'rishimiz mumkin.Ijtimoiy jihatdan aholi salomatligi va dori-darmonlarning hamyonbop narxda bo'lishi mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning qanchalik to'g'ri ekanligidan darak beradi. E.R.Toshmuxamedov,X.S.Zaynutdinov,R.Z.Ziyayev,M.YA.Ibragimova,SH.Z.

Umarova S.SH.Zulfitdinova,A.M.To'xtayeva larning fikricha:

Farmatsevtika iqtisodiyoti bu – aholining salomatligini saqlash uchun dori vositalari,tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish,tarqatish va xizmatlat ayriboshlash bilan shug'ullanuvchi tarmoqlar yig'indisi.

Sohaning eng kichik bo'g'ini hisoblangan dorixonalar faoliyatini ta'riflovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar quyidagilardir:

- savdo hajmi
- yalpi daromad
- sof foyda
- muomala xarajatlari
- mehnat va ish haqi
- tovarlar g'amlanmalaridir.

(E.R.Toshmuxamedov,X.S.Zaynutdinov,R.Z.Ziyayev,M.YA.Ibragimova,SH.Z.

Umarova,S.SH.Zulfitdinova,A.M.To'xtayeva, 2008)

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur mavzuni yoritishda tahlil,induksiya,deduksiya,tizimli va kompleksli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Mamlakatimiz iqtisodiyotida savdo sohasi yetakchi sohalardan hisoblanib hozirgi kunda eng tez rivojlanmogda.Bunga yaqqol misol 2025-yil 1-yanvar holatiga savdo sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 131 964 taga yetdi va mos ravishda 2024 yil yanvar-dekabr oylarida 28 007 ta yangi tashkil etilgan korxonalar mavjud.Ushbu korxonalar ichida farmatsevtika sohasiga oid bo'gan korxonalar soni

bugungi kunga kelib 16 760 taga yaqin bo'lib, umumiy hisobda hozirda respublikada yiliga 1,6 milliard dollarlik 1,5 ming turdagi farmatsevtika mahsulotlari iste'mol qilinmoqda.

Rejaga ko'ra, 2026 yilgacha respublikada oltita yangi korxona ochilishi kerak. Ushbu loyihalarning umumiy qiymati 280 million dollarni tashkil etadi va bugungi kunda davlat tomonidan ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tomonidan ushbu muammoni hal qilish uchun barcha zarur choralar ko'rilmoqda. (U.Egamov, 2023)

Bozorning yillik o'sish sur'ati 14,46% (Yillik o'sish sur'ati - 2024-2029) bo'lishi prognoz qilinmoqda. (www.statista.com)



1-rasm. 01.01.2025 holatiga mamlakatimizdagi yuridik shaxslar to'g'risida ma'lumot (DSQ, 2025)



2-rasm. Farmatsevtika sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalar tarkibi
(uzpharm-control.uz, 2025)

Bundan ko'rinib turadiki o'rtacha hisobda ($13\ 232/131\ 964=12.7\%$) 10.2% korxonalar aynan mazkur sohada faoliyat olib borayotgan ekan.

Respublika miqyosida oladigan bo'lsak, o'tgan yilning yanvar – noyabr oylarida savdo sohasida TOP 20 soliq to'lovchilar ro'yxatida ham farmatsevtika sohasida faoliyat olib boruvchi yirik korxonalarni ko'rishimiz.

Sohada olib borilayotgan to'g'ri ishlar so'nggi yillarda o'z mevasini berib respublikamizda soliq tushumlari mazkur soha bo'yicha karrasiga ortdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Quyida ushbu sohada yetakchi ulgurji korxonalar to'lagan va 1% qo'shilgan qiymat solig'idan keshbek qaytarishda faol bo'lgan tarmoq dorixalarini ko'rib chiqamiz.



3-rasm.2024-yil yanvar-noyabr oylarida savdo sohasida eng ko'p soliq to'lagan TOP-20 korxonalar (DSQ ma'lumotlari asosida,2024)

Ushbu rasmdan ko'rinib turibdiki Top-20 soliq to'lovchilardan 11 va 12 o'rinda aynan farmatsevtika sohasi vakillari turibdi.


Jumladan,

“MEROS PHARM” MCHJ esa tovar aylanmasi - 4 trln 237 mlrd 800 mln so'mga yetgani va bundan 87 mlrd 300 mln so'm soliq to'langanligi va 118 mlrd 300 mln so'm soliq imtiyozi qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin

“GRAND PHARM TRADE” MCHJ tovara aylanmasi mazkur davrda – 5 trln 127 mlrd 200 mln so'm bo'lgan va undan 86 mlrd 900 mln so'm soliq to'langanligi va 143 mlrd 200 mln so'm soliq imtiyozi qo'llaganligi ko'rish mumkin


Bundan ko'rinib turibdiki davlat bu sohaga bir qator imtiyozlar bergani va buning natijasida mazkur soha vakillari soliq bo'yicha TOP-20 korxonalar qatoriga kirgani sohada ishlar to'g'ri yo'lda ekanligini anglatadi.

Endi chakana savdo sohasi bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha 1% keshbek qaytaruvchi tarmoq dorixonalar bo'yicha ma'lumotni tahlil qilsak:



4-rasm.2024 yilgi noyabr oyida xarid cheklari soliq mobil ilovasi orqali eng ko'p ro'yxatdan o'tkazilgan TOP-20 korxona (DSQ ma'lumotlari asosida,2024)

Mazkur ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki hozirgi kunda NKM lar orqali cheklarni mobil ilovada ro'yxatdan o'tkazish va qo'shilgan qiymat solig'idan 1% keshbek qaytralishi amaliyoti juda yaxshi ketmoqda.Farmatsevtika sohasida faoliyat yuritayotgan dorixonalar tarmoqlari ham bu masalada yetakchi orinlarda bormoqda. Jumladan, "GRAND PHARM TRADE" MCHJ dorixonalar tarmog'i 193 ming 100 ta dona chekdan umumiy qiymati 211 mln 700 ming so'mlik keshbek qaytarilgan. "NIKA FARM SERVIS" MCHJ dorixonalar tarmog'i mazkur ro'yxatda 16 o'rinda turibdi va umumiy soni 134 ming 500 dona cheklardan umumiy qiymati 127 mln 200 ming so'm keshbek qaytarilgan.Mazkur raqamlar albatta sohani rivojlanish bosqichida ekanini ko'rsatib kelajakda yanada kattaroq tovar aylanmalari bo'lishini prognoz bermoqda.



5-rasm.2022-yil 12-apreldagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilishdan ma'lumot.

Mazkur rasmdan ko'rinib turibdiki. Deyarli 75% yoki 1.2 mlrd.dollarlik farmasevtika mahsulotlari chetdan import qilinmoqda. Mahalliy ishlab chiqarish hajmi 25% yoki qariyb 400 mln.dollarni tashkil qilmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatda asosiy e'tiborni mahalliy ishlab chiqarishga qaratish ustuvor vazifa hisoblanadi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham yig'ilishda mahalliy dori vositalari ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish, ichki bozorni ta'minlash darajasini natural hajmda 80 foizga yetkazish vazifasi qo'ydilar.(Sh.Mirziyoyev,2022)

Yig'ilishda shu borada boshlangan ishlar, tarmoqdagi loyihalar holati tanqidiy tahlil qilindi.

Hududlar kesimida olganda, mahalliy lashtirish darajasi mutlaqo qoniqarsiz. Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Buxoro va Farg'ona viloyatlarida iste'mol qilinadigan dorining atigi 2-5 foizi mahalliy ishlab chiqaruvchilar hissasiga to'g'ri keladi.

Hozirgi kunda mazkur sohani rivojlanish natijasida soliqqa tortish masalasida ham bir qator o'zgarishlar bo'lmoqda.

2023-yil 15-dekabrda "Soliq va budget siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi.

QQS bo'yicha ayrim imtiyozlar bekor qilindi va ular quyidagilardir:

Quyidagilar bo'yicha savdo aylanmasi QQSGa tortiladi



6-rasm. Quyidagilar bo'yicha savdo aylanmasi QTSga tortiladi

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda quyidagilar QTSga tortiladi:

- dori vositalari,
- veterinariya dori vositalari,
- tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlar,
- shuningdek qonunchilikda belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kiriladigan xomashyo.

Mazkur hujjat 2024-yil 1-apreldan kuchga kirdi va soliq imtiyozi bekor qilindi. Hozirgi kunda farmatsevtika sohasida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha to'laonli zanjir shakllangan bo'lib, soliq yuki keying yillarda tushishi prognoz qilinmoqda.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonda soliq sohasida asosiy masala albatta soliq tushumlarini ko'paytirish va shu o'rinda soliq bazasini yanada kengaytirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda hozirda savdo sohasida ayniqsa farmatsevtika sohasida ham bir qator muommolar mavjud. Jumladan ishchi o'rinini yashirish yoki tushumni kamaytirib ko'rsatish, xufyona iqtisodiyotga yo'l ochib bermoqda. Ushbu muommolar bo'yicha quyidagi xulosa va takliflarni qo'llab ko'rish tavsiya etiladi:

1. Ishchi o'rnini yashirishni oldini olish uchun QTS so'lig'idan keshbek tizimini daromad solig'iga ham qo'llab ko'rish, bunda daromad manbai ko'rsatilsa xodimning ish joyi aniq bo'ladi

2. Iste'molchilarga xarid chekini olish nafaqat moliyaviy balki, dorini sifatsiz holatlarida uni qaytarish yoki xarid bo'yicha kelishmovchiliklarda isbotlovchi hujjat bo'lib xizmat qilishini o'rgatuvchi tizimni yaratish va doimiy tashviqot ishlarini olib boorish

3. Davlat tomonidan hozirgi kunda mahsulotlar harakatini ko'rishni shaffoflashtirish maqsadida olib borilayotgan ishlarni tugatish. Chunki tizim amaliyotga joriy qilingandan keyin noqonuniy yoki kontrafakt tovarlar aylanmasi yaqqol namoyon bo'ladi va tezkor tartibda to'xtatiladi.

4. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlarni tugatgan holda, sohaning barcha bo'g'inlarida zanjirni ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nazarali o'g'li, M. S. (2023). THE STUDY OF VALUE-ADDED TAX: KNOWLEDGE FROM THE EU VAT EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S VAT SYSTEM. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 131-135.
2. Otto, M., & Thornton, J. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I VA AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ TO'LOVCHILARINI BIR-BIRIDAN FARQLI JIHATLARINI BAHOLASH. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 140-143.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilishdagi ma'ruzasi. - T. O'zbekiston 2022 yil 12-aprel
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi "Budjetnoma 2025-2027" 15 bet
5. 2023-yil 15-dekabrda "Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni <https://lex.uz/docs/6718864>.
6. E.R. Toshmuxamedov, X.S. Zaynutdinov, R.Z. Ziyayev, M.YA. Ibragimova, SH.Z. Umarova S.SH. Zulfidinova, A.M. To'xtayeva (2008) Farmatsevtika iqtisodiyoti // 6-bet.
7. У. Эгамов (2023) : «Фармацевтика превращается в экономический драйвер Узбекистана»
8. <https://uz.kursiv.media/2023-10-06/farmaczevtika-prevrashhaetsya-v-ekonomicheskij-drajver-uzbekistana>
9. <https://www.statista.com/outlook/hmo/otc-pharmaceuticals/Uzbekistan>
10. https://www.uzpharm-control.uz/uz/pages/Statistical_data_license
11. B. Voxidov (2024) [O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHIDA FARMATSEVTIKA SOHASINING TUTGAN O'RNI VA UNDAGI SOLIQQA TORTISH BILAN BOG'LIQ O'ZGARISHLAR | Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi](#) 14-to'plam 3-son